

ADABIY TA'LIMDA KOGNITIV SIFATLARNI SHAKLLANTIRISH

Tursunboyeva Muattar Ikromjon qizi,

Namangan davlat pedagogika instituti

2-bosqich magistranti

muattartursunboyeva00@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18358718>

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy adabiy ta'lim tizimida o'quvchilarning kognitiv sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish masalalari tadqiq etiladi. Maqolada badiiy matn tahlili jarayonida o'quvchi tafakkurining o'sish dinamikasi, axborotni qabul qilish va qayta ishlashning kognitiv modellari yoritilgan. Xalqaro baholash dasturlari (PISA) mezonlari va milliy ta'lim standartlari qiyosiy tahlil qilinib, adabiyot darslarida interpretativ kompetensiya va metakognitiv ko'nikmalarni faollashtirish bo'yicha amaliy takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: kognitiv sifatlar, adabiy ta'lim, interpretatsiya, tanqidiy tafakkur, intellektual salohiyat.

Аннотация. В данной статье будут рассмотрены вопросы формирования и развития когнитивных качеств учащихся в современной системе литературного образования. В статье рассматривается динамика развития читательского мышления в процессе анализа художественного текста, когнитивные модели восприятия и обработки информации. Проведен сравнительный анализ критериев международных программ оценки (PISA) и национальных стандартов образования, а также даны практические предложения по активизации интерпретативной компетенции и метакогнитивных навыков на уроках литературы.

Ключевые слова: когнитивные качества, литературное образование, интерпретация, критическое мышление, интеллектуальный потенциал.

Annotation. This article will study the issues of the formation and development of cognitive qualities of students in the modern literary education system. The article covers the dynamics of growth of the reader's thinking in the process of artistic text analysis, cognitive models of information perception and processing. The criteria for international assessment programs (PISA) and the national standards of education are analyzed in a comparative way, with practical proposals for the activation of interpretive competence and metacognitive skills in literature classes.

Keywords: cognitive qualities, literary education, interpretation, critical thinking, intellectual potential.

Kirish. Hozirgi adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarda kognitiv sifatlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xo'sh kognitiv sifat o'zi nima? Bu tushuncha asosida nima yotadi? Uning adabiy ta'limdagi o'rni qanday? Kognitiv sifatlarni – bu insonning bilish, axborotni qabul qilish, uni qayta ishlash va xotirada saqlash bilan bog'liq bo'lgan intellektual imkoniyatlaridir. Oddiyroq aytganda, bu bizning miyamiz “qanday ishlashi” va ma'lumotni qanchalik samarali tahlil qila olishini belgilaydigan xususiyatlardir. Adabiyot darslari misolida bu sifatlarni quyidagicha tushunish mumkin:

1. Diqqat va idrok. Bu matnni shunchaki o'qish emas, balki undagi detallarni payqash qobiliyati. Masalan, “Shum bola” asaridagi birgina so'z yoki qahramonning kiyimidagi detal orqali uning ijtimoiy holatini anglash.

2. Xotira. Faqat voqealarni eslab qolish emas, balki asar syujetidagi sabab-oqibat bog‘liqliklarini yodda tutish. Avvalgi bobda sodir bo‘lgan voqeaning keyingi bobga ta‘sirini tahlil qilish.

3. Tafakkur. Bu jarayonda o‘quvchi analiz qiladi, ya‘ni obrazlarni ma‘lum bir mezonlar asosida bo‘laklarga ajratadi. Bundan tashqari, sintez qiladi va asar g‘oyasidan o‘zi uchun xulosa yasaydi. Eng so‘nggi bosqichda esa abstraksiyalashtiradi, ya‘ni asardagi voqeani hayotiy qonuniyatlarga ko‘chiradi.


4. Interpretatsiya (Talqin qilish). Matnning “qatlamlari” orasidagi yashirin ma‘nolarni o‘qish. Masalan, Shum bolaning sarguzashtlari ortidagi achchiq ijtimoiy haqiqatni tushunish – bu yuqori darajadagi kognitiv sifatdir.

5. Kreativlik va Tasavvur. O‘qilayotgan asar asosida ko‘z oldida yangi obrazlarni shakllantirish va voqealar rivojini taxmin qilish qobiliyati.

Nima uchun bu xususiyatlar adabiyot darsida muhim? Agar o‘quvchida kognitiv sifatlar rivojlanmasa, u asarni shunchaki “ertakdek” o‘qiydi va undan hech qanday ma‘naviy ozuqa olmaydi. Zero, bugunki kunda adabiyotni o‘qitish o‘quvchiga kuchli ma‘naviy ta‘sir, ibrat berishi lozim. Chunki adabiy ta‘lim kitobxonlikka targ‘ib qiladi. Kitobxonlik esa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, jamiyat taraqqiyotining asosi, yoshlar intellektining muhim omilidir. Davlatimiz rahbari kitob o‘qishni shunchaki hordiq emas, abalki mustaqil fikrni shakllantiruvchi asosiy vosita sifatida baholaydi. Bu esa adabiy ta‘lim oldiga o‘quvchilarning matnni tahlil qilish, mantiqiy xulosalar chiqarish kabi kognitiv sifatlarini tizimli rivojlantirish vazifasini qo‘yadi.

Adabiyotlar tahlili. Adabiy ta‘limda kognitiv yondashuv — bu shunchaki metodik usullar majmuyi emas, balki o‘quvchining mental strukturalarini qayta qurish jarayonidir. Kognitiv psixologiya va pedagogika chorrahasida vujudga kelgan ushbu yo‘nalishning nazariy asoslari, avvalo, J. Piage va L. Vigotskiyning “ijtimoiy konstruktivizm” nazariyalariga borib taqaladi. Vigotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasi adabiy ta‘limda muhim ahamiyatga ega: o‘quvchi murakkab badiiy obrazni tahlil qilar ekan, u o‘zining mavjud intellektual chegarasidan hatlab o‘tadi va yangi kognitiv sifatlarni o‘zlashtiradi.

Ingliz tadqiqotchilaridan B. Blum o‘zining mashhur taksonomiyasida bilish jarayonini olti bosqichga ajratadi. Adabiyot darslarida “eslab qolish” va “tushunish” quyi darajadagi kognitiv ko‘nikmalar bo‘lsa, “tahlil”, “sintez” va “baholash” yuqori darajali sifatlar hisoblanadi.



Shveysariyalik olim R. Bart esa o‘zining “Matn zavqi” asarida kitobxonni “passiv iste’molchi”dan “faol ijodkor”ga aylanish jarayonini kognitiv nuqtayi nazardan asoslab beradi. Uning fikricha, matn tahlili jarayonida o‘quvchining dekodlash (ma’no ochish) qobiliyati rivojlanishi — kognitiv o‘shishning oliy nuqtasidir.

Milliy pedagogikada ushbu masala so‘nggi yillarda yangi bosqichga ko‘tarildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning kitobxonlik va intellektual salohiyatni yuksaltirishga oid konseptual fikrlari adabiy ta’limning strategik yo‘nalishini belgilab berdi. Davlatimiz rahbari kitob o‘qishni “tafakkur ehtiyoji” sifatida talqin etishi, mohiyatan o‘quvchining kognitiv apparatini doimiy faollikda ushlab turishga xizmat qiladi. Bu esa darsliklarda beriladigan savol va topshiriqlarni reproduktiv xarakterdan produktiv xarakterga o‘tkazish zaruratini tug‘diradi.

O‘zbek adabiyotshunosligi va metodikasida Q. Yo‘ldoshev, S. Matchonov kabi olimlar adabiy ta’limning konseptual asoslarini ishlab chiqqanlar.

Q. Yo‘ldoshev o‘z tadqiqotlarida adabiyot darslarining asosiy maqsadi — asarni shunchaki o‘rgatish emas, balki asar orqali o‘quvchini o‘ylashga, mushohada yuritishga majbur qilish ekanini ta’kidlaydi. Bu ilmiy qarash kognitiv psixologiyadagi “metakognitsiya” (o‘z fikrlash jarayonini tushunish va boshqarish) tushunchasi bilan hamohangdir.

Shuningdek, kognitiv poetika yo‘nalishida M. Jumayev va boshqa tadqiqotchilar badiiy matnni qabul qilishning psixolingvistik tomonlarini o‘rganganlar. Badiiy asardagi metaforalar, simvollar va personajlar tizimi o‘quvchi miyasida yangi “kognitiv xarita” hosil qiladi. Masalan, G.G‘ulomning “Shum bola” qissasini tahlil qilish jarayonida o‘quvchi qahramonning makkorlik va donolik orasidagi nozik chegarasini farqlashga urinadi. Bu jarayonda miyaning tanqidiy fikrlash markazlari faollashadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda o‘quvchilarning kognitiv va kreativ sifatlarini rivojlantirish uchun “tizimli-funksional tahlil” hamda “interpretativ modellashtirish” metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot faqat nazariy xulosalar bilan cheklanib qolmay, o‘quvchi tafakkurining amaldagi o‘zgarishlarini kuzatishga yo‘naltirilgan tajriba-sinov ishlarini qamrab oldi.

Tadqiqotning metodologik asosi quyidagi uchta bosqichda amalga oshirildi:

1. “Bo‘shliqlarni to‘ldirish” metodikasi:

Badiiy matndagi “noma’lum” yoki “ochiq qolgan” nuqtalardan unumli foydalanildi. O‘quvchilarga asar syujetidagi burilish nuqtalarida to‘xtab, muallif aytmagan detallarni o‘z tasavvurlari asosida kreativ to‘ldirish vazifasi yuklatildi. Bu metod o‘quvchini tayyor qoliplardan chiqishga va mustaqil intellektual yechim yaratishga majbur qildi, natijada ularning kreativlik indeksi o‘rganildi.

2. Evristik munozara va refleksiya:

Tadqiqot davomida o‘quvchilarning o‘z fikrlash jarayonini nazorat qilishi uchun refleksiv savollardan foydalanildi. “Nima uchun aynan shu talqinni tanladingiz?”, “Fikrlash jarayoningizda qaysi detal sizni boshqa yo‘nalishga burdi?” kabi savollar orqali o‘quvchining ichki kognitiv operatsiyalari monitoring qilindi.

Olingan ma’lumotlarni statistik tahlil qilish uchun Namangan viloyatidagi tanlab olingan maktablarning yuqori sinf o‘quvchilari o‘rtasida tajriba va nazorat guruhlarini tashkil etildi. Har ikki guruhning natijalari o‘quv o‘zlashtirishining kognitiv-kreativ shkalasi bo‘yicha o‘zaro qiyoslandi.

Tahlillar va natijalar. Xalqaro tajriba: Jahon ta’lim tizimida, xususan, Finlandiya, Estoniya va Janubiy Koreya kabi davlatlarning adabiy ta’lim dasturlarida asosiy urg‘u “o‘qish savodxonligi” (Reading Literacy) orqali kognitiv sifatlarni transformatsiya qilishga qaratilgan. PISA (Programme for International Student Assessment) xalqaro baholash dasturining talablariga ko‘ra, o‘quvchi matndan nafaqat axborot olishi, balki o‘sha axborotni o‘zining mavjud bilimlari asosida refleksiya qilishi va tanqidiy baholashi shart.

G‘arbiy Yevropa metodikasida “Deep Reading” (Chuqur mutolaa) konsepsiyasi keng tarqalgan bo‘lib, u badiiy matnni tahlil qilish jarayonida miyaning boshqaruv funksiyalarini faollashtirishni ko‘zda tutadi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, adabiyot darslarida o‘quvchiga matnni shunchaki tushunish emas, balki undagi yashirin kognitiv sxemalarni (metofora va simvollar qatlamini) “buzib ochish” (decoding) o‘rgatiladi. Bu esa yoshlarda murakkab ijtimoiy muhitda mantiqiy xulosa chiqarish ko‘nikmasini shakllantiradi.


Mahalliy holat: O‘zbekiston adabiy ta’lim tizimi uzoq yillar davomida ko‘proq “axborot uzatish” va “mazmunni qayta aytib berish” (reproduktiv metod) tamoyiliga tayanib keldi. Mahalliy darsliklarimizdagi savollar, asosan, faktlarni aniqlashga qaratilgan bo‘lib, bu holat o‘quvchining yuqori darajadagi kognitiv sifatlarini (sintez va baholash) sustlashtirib qo‘ygani bor gap. Biroq, so‘nggi yillardagi ta’limiy islohotlar va Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasi bu yondashuvni tubdan o‘zgartirishni talab etmoqda.

Mahalliy pedagogik amaliyotda asarlarni tahlil qilishda kognitiv yondashuvni qo‘llash hali ham shakllanish bosqichida turibdi. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, milliy ta’limda o‘quvchining mantiqiy fikrlashini emas, ko‘proq his-tuyg‘ularini tarbiyalashga urg‘u beriladi. Vaholanki, kognitiv sifatlarni — bu emotsiya va mantiqning sintezidir.

Xalqaro va mahalliy tajribaning kesishish nuqtasi shundaki, har ikki tizim ham badiiy adabiyotni shaxs shakllanishidagi eng muhim vosita deb biladi. Ammo xalqaro tajribada matn — bu intellektual vosita, bizda esa u ko‘pincha axloqiy ozuqa manbai sifatidagina ko‘riladi. Adabiyot darslarida o‘quvchilarda kognitiv sifatlarni rivojlantirish uchun asarlarni tahlil qilishda xalqaro standartdagi “tanqidiy tahlil” metodlarini milliy mentalitetga moslashtirgan holda joriy etishimiz kerak. Natijada, o‘quvchi qahramonning xislatlarini hayotiy strategiya va kognitiv mahorat sifatida tahlil qila boshlaydi. Bu esa ta’limimizning xalqaro darajadagi raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim qadam bo‘ladi.

Tadqiqot jarayonida olingan natijalar adabiy ta’limning shunchaki estetik zavq berish emas, balki murakkab kognitiv jarayon ekanligini tasdiqlaydi. O‘quvchilarning asar asosida ko‘rsatgan tahliliy natijalari kognitiv psixologiyadagi “sxemalar nazariyasi” bilan bevosita bog‘liqdir. Ya’ni, o‘quvchi matnni o‘qish jarayonida o‘zining mavjud bilimlar bazasini asar mazmuni bilan to‘qnashtiradi va yangi intellektual xulosalar hosil qiladi.

Natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning kognitiv o‘sishi Bloom taksonomiyasining yuqori bosqichlariga ko‘tarilish tezligi bilan o‘lchanadi. Quyidagi chizmada adabiyot darsida kognitiv sifatlarning iyerarxik rivojlanish modeli aks ettirilgan:



Tadqiqot natijalarini xalqaro tajriba bilan qiyoslaganimizda, mahalliy ta’limda hali ham “matnni tushunish” va “matnni tahlil qilish” o‘rtasidagi farq biroz noaniq ekanligi seziladi. Xalqaro baholash tizimlarida (PISA) kognitiv sifatlari quyidagi uchta mezon asosida baholanadi, biz ham o‘z natijalarimizni shu formatda tizimlashtirdik.

Kognitiv kompetensiyalarni baholash mezonlari

| <i>Mezon</i> | <i>Tavsifi</i> | <i>Asar tahlilidagi ifodasi</i> |
|------------------|-----------------------------|---|
| axborotni topish | matndagi faktlarni ajratish | davr va muhit tasvirini aniqlash |
| integratsiya | matn qismlarini bog‘lash | voqealar zanjirini mantiqiy yig‘ish |
| refleksiya | shaxsiy baho berish | qahramon xatti-harakatini axloqiy tahlil qilish |

Shuni alohida ta’kidlash joizki, kognitiv yondashuv o‘quvchini passiv obyektidan faol subyektga aylantiradi. Muhokama qilinayotgan natijalar shuni ko‘rsatdiki, dars

jarayonida “Muammoli ta’lim” metodidan foydalanilganda, o‘quvchilarning o‘zaro bahs-munozara qilish (kognitiv konflikt) madaniyati ham shakllanadi. Bu esa nafaqat adabiy bilimni, balki hayotiy mantiq va ijtimoiy moslashuvchanlik sifatlarini ham yuksaltiradi.

Xulosa. Adabiy ta’limda kognitiv sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish masalasini kompleks o‘rganish natijasida shunday xulosaga kelindiki, badiiy matn shunchaki axborot manbai emas, balki o‘quvchi tafakkurini tizimlashtiruvchi murakkab intellektual vositadir.

Tadqiqot davomida aniqlangan asosiy kognitiv ko‘rsatkichlar — interpretatsiya, mantiqiy inferensiya va tanqidiy refleksiya — o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishida fundamental ahamiyatga ega. Xalqaro tajriba (PISA, PIRLS) va milliy ta’limiy ehtiyojlar qiyosiy tahlili shuni tasdiqladiki, bugungi kunda adabiyot darslari o‘quvchidan matn shunchaki “bilish”ni emas, balki undan yangi ma’no “yaratish”ni talab etmoqda. Bu esa ta’lim tizimida reproduktiv metodlardan kognitiv-konstruktiv metodlarga o‘tish zaruratini anglatadi.

O‘tkazilgan ilmiy kuzatishlar va olingan empirik natijalarga tayanib, adabiy ta’lim samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Metodik yondashuvni isloh qilish: Adabiyot darslarida asosiy e’tiborni voqealar xronologiyasini yodlatishga emas, balki qahramonlarning kognitiv motivatsiyasini tahlil qilishga qaratish lozim. Savollar tizimini “Kim?”, “Qachon?” formatidan “Nima uchun?”, “Qanday qilib?”, “Agar bunday bo‘lmaganida...” kabi yuqori darajali kognitiv savollar formatiga o‘tkazish zarur.

2. Darsliklar mazmunini kognitivlashtirish: Umumta’lim maktablari uchun yaratilayotgan adabiyot darsliklarida matn ustida ishlash uchun mo‘ljallangan topshiriqlar o‘quvchining mantiqiy va kreativ tafakkurini uyg‘otuvchi “kognitiv topshiriqlar” (masalan, matn vizuallashtirish, kognitiv xaritalar chizish, qiyosiy jadvallar to‘ldirish) bilan boyitilishi lozim.

3. Xalqaro standartlarni integratsiya qilish: Milliy adabiy ta’lim dasturlariga xalqaro baholash tizimlarining (PISA) matn tahlil qilish va baholash mezonlarini bosqichma-bosqich tatbiq etish lozim. Bu o‘quvchilarimizning jahon miqyosidagi intellektual raqobatbardoshligini ta’minlashning eng qisqa yo‘lidir.

4. O‘qituvchilarning kognitiv kompetensiyasini oshirish: Pedagog kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimida “Kognitiv poetika” va “Adabiy ta’lim psixologiyasi” kabi maxsus kurslarni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Zero, o‘quvchida kognitiv sifatlarni shakllantirish uchun o‘qituvchining o‘zi yuqori kognitiv salohiyatga ega bo‘lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, adabiy ta’limda kognitiv sifatlarning rivojlantirilishi jamiyatda intellektual boy va mustaqil fikrlaydigan avlodning shakllanishiga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan Uchinchi Renessans poydevorini qurish g‘oyasining ta’limiy asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Zero, kitob o'qish va uni kognitiv tahlil qilish — millat tafakkurini yangilashning eng samarali vositasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.
2. Mirziyoyev Sh. M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', kelajagi yorug' bo'ladi. 3-tom. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida”gi PQ-3271-son qarori.
4. Bloom, B. S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. – New York: David McKay Company, 1956.
5. Piaget, J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 2001.
6. Vygotskiy, L. S. Myshlenie i rech (Tafakkur va nutq). – Moskva: Labirint, 1999.
7. Yo'ldoshev Q. Yonig' so'z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – 544 b.
8. Matchonov S. Adabiyot ta'limi texnologiyasi. – Toshkent: Fan, 2004.
9. G'ulom G'. Shum bola (Qissa). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.
10. PISA 2022 Results: Learning During and Post-Pandemic. – OECD Publishing, 2023.
11. Bart, R. Matn zavqi. – Moskva: Ad Marginem, 1994.

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934